


XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar soni

(2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni
(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

35 670



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

3 302



Oilaviy korxonona

5 277



Xususiy korxonona

40



Aksiyadorlik jamiyati

617




Boshqalar

Mas'uliyati cheklangan jamiyat, birlik



xususiy korxonona, birlik



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlarda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyati:

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi.


Aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-sentabr oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi
(2023-yil yanvar-sentabr oylarida, umumiy sonidagi ulushi %)




2023-yilning yanvar-sentabr oylarida 3 439 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 3 012 ta, oilaviy korxonalar 198 ta, xususiy korxonalar 59 ta, muassasalar 80 ta va boshqalar 90 tani tashkil etdi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi
(1-oktabr holatiga ko‘ra)



Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(2023-yil 1-oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)




2023-yil 1-oktabr holatiga ko‘ra sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 5 544 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 56,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat korxonalari soni jami korxonalar va tashkilotlarning 18,5 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan – 56,0 % ni (jami sanoatdagi ulushi 95,5 %), tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda – 81,8 % ni (jami sanoatdagi ulushi 2,2 %), suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishda – 60,8 % ni (jami sanoatdagi ulushi 1,8 %), elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalashda – 83,3 % ni (jami sanoatdagi ulushi 0,5 %) tashkil etgan.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2 130 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 63,8 % ni tashkil etdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda:

fuqarolik obyektlarini qurishda – o'tgan yilga nisbatan 100,0 % ni (jami qurilishdagi ulushi 14,3 %);

bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan – 57,5 % ni (jami qurilishdagi ulushi 55,0 %);

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarida – 65,4 % ni (jami qurilishdagi ulushi 30,7 %) o'sishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 9 210 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 70,4 % ni tashkil etdi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 69,8 % ni (jami savdodagi ulushi 63,5 %);

avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashda o'tgan yilga nisbatan – 63,8 % ni (jami savdodagi ulushi 6,6 %);

avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 73,4 % ni (jami savdodagi ulushi 29,9 %) tashkil etadi.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 235 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 61,5 % ni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 62,6 % ni (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 94,5 %);

yashash bo'yicha xizmatlar – 49,6 % ni (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 5,5 %) tashkil etadi.


**Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni**
(1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 424 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 69,1 % ni tashkil etdi.

Jami axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar sonidan nashriyotchilik faoliyatida o'tgan yilga nisbatan – 80,4 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 10,6 %), kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlarida o'tgan yilga nisbatan – 65,2 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 27,4 %), aloqa yo'nalishida o'tgan yilga nisbatan – 72,7 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 48,4 %), axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyatda o'tgan yilga nisbatan 62,7 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 9,9 %), kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqishda o'tgan yilga nisbatan – 50,0 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 2,8 %), dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishda o'tgan yilga nisbatan – 57,1 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 0,9 %) tashkil etadi.

Oilaviy korxonalar soni (1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra 3 302 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 23 taga yoki 0,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 457 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 1 540 taga yoki 51,4 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.


2023-yilning yanvar-sentabr oylarida 198 ta yangi oilaviy korxonalar tashkil etildi.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra 35 670 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2 893 taga yoki 8,8 % ga oshganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 20 540 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 10 159 taga yoki 33,1 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.


2023-yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3 012 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 872 taga yoki 22,5 % ga kamayganligini ko'rsatmoqda.




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni
(2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




**Andijon viloyatidagi xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalar va tashkilotlar soni**
(2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra 475 tani tashkil etib, ulardan 308 tasi yoki 64,8 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 44 taga yoki 10,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatimizda 39 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxonona</i>	<i>xorijiy korxonona</i>
Viloyat bo'yicha:	308	154	154
shaharlar:			
Andijon sh.	120	49	71
Xonobod sh.	13	8	5
tumanlar:			
Andijon	24	15	9
Asaka	18	11	7
Baliqchi	6	4	2
Bo'ston	7	5	2
Buloqboshi	17	8	9
Jalaquduq	14	5	9
Izboskan	15	5	10
Ulug'nor	4	2	2
Marhamat	13	9	4
Oltinko'l	18	7	11
Paxtaobod	6	4	2
Xo'jaobod	10	7	3
Shahrixon	17	12	5
Qo'rg'ontepa	6	3	3

Yetakchi o'rinni 80 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Rossiya Federatsiyasi egallagan. Bu, viloyatda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 26,0 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Andijon viloyati iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Xitoy (ulushi 21,1 foiz), Turkiya (ulushi 15,6 foiz), Qirg'iz Respublikasi (ulushi 14,6 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 9,4 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanadilar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.
Jami	286	332	384	417	308
shu jumladan:					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	25	26	24	28	20
Sanoat	172	188	210	207	151
Qurilish	18	21	25	35	21
Savdo	33	43	56	71	64
Tashish va saqlash	2	5	4	5	5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6	9	10	10	11
Axborot va aloqa	5	4	4	5	3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2	5	7	7	2
Boshqa turlar	23	31	44	49	31

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar
qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**
(2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi % da)



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda. Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.


Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 29 895 tani tashkil etdi.

Ularning hududlar kesimida taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: Andijon shahrida – 26,2 foiz, Asaka – 8,6 foiz, Andijon – 7,7 foiz, Shahrixon – 7,3 foiz, Baliqchi – 5,4 foiz, Oltinko'l – 5,2 foiz, Qo'rg'ontepa – 5,1 foiz, Xo'jaobod – 4,9 foiz, Izboskan – 4,9 foiz hamda Marhamat – 4,9 foiz tumanlarida tashkil etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni
(2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida soni
(2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida jamidagi ulushi Andijon shahrida 28,3 %, Andijon 7,9 %, Asaka 7,5 %, Shahrixon 7,1 %, Xo'jaobod 5,3 %, Baliqchi 5,3 %, Marhamat 5,2 %, Oltinko'l 5,0 %, Izboskan 5,0 %, Paxtaobod 4,6 %, Qo'rg'ontepa 4,4 %, Jalaquduq 4,4 %, Buloqboshi 3,0 %, Bo'ston 2,6 %, Ulug'nor 2,6 % tumanlari va Xonobod shahri 1,8 % ni tashkil etadi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni


(2023-yilning yanvar-sentabr oylarida, birlikda)




2023-yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Andijon (23,2 %), Bo'ston (17,7 %), Andijon shahri (16,2 %), Qo'rg'ontepa (14,6 %), Asaka (8,6 %), Shahrixon (6,6 %), Oltinko'l (5,1 %), Izboskan (2,5 %), Buloqboshi (2,5 %), Paxtaobod (1,0 %), Xo'jaobod (0,5 %), Jalaquduq (0,5 %), Baliqchi (0,5 %) tumanlari hamda Xonobod shahri (0,5 %) ulushiga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2023-yilning yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-sentabrdagi PF-5739-son hamda 2022-yil 20-aprel PF-113-son Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-avgustdagi 704-son qarori bilan:

- tijorat korxonalari hisobiga 9 oy davomida pul mablag'lari tushmaganligi yuzasidan banklar davlat soliq organlarini tizim orqali xabardor qilishi;

- shundan so'ng, davlat soliq organlari taqdimnomasiga asosan Davlat xizmatlari markazlari korxonani harakatsiz holatga o'tkazishi va bu haqida davlat reyestriga hamda Tizimga tegishli yozuv kiritiladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar - norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.